


ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ СОҒЛИҚНИ САҚЛАШ ВАЗИРЛИГИ
ТОШКЕНТ ТИББИЁТ АКАДЕМИЯСИ

2022

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
АХБОРОТНОМАСИ



В Е С Т Н И К
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

**ВЫПУСК ПОСВЯЩАЕТСЯ
100-ЛЕТИЮ ТАШКЕНТСКОЙ
МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ**

KOVIDDAN KEYINGI DAVRDA YURAK ISHEMIK KASALLIGI MAVJUD BEMORLAR HAYOT SIFATIGA KLINIK VA ANAMNESTIK OMILLARNING TA'SIRI

Nasretdinova D.O., Abdumalikova F.B., Usmonov X.I.

ВЛИЯНИЯ КЛИНИКО-АНАМНЕСТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ НА КАЧЕСТВО ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ С ИШЕМИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ СЕРДЦА В ПОСТКОВИДНОМ ПЕРИОДЕ

Насретденова Д.О., Абдумаликова Ф.Б., Усманов Х.И.

INFLUENCE OF CLINICAL AND ANAMNESTIC FACTORS ON THE QUALITY OF LIFE OF PATIENTS WITH CORONARY HEART DISEASE IN THE POST-COVID PERIOD

Nasretdenova D.O., Abdumalikova F.B., Usmanov Kh.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Tashkent

С целью определения ключевых клинико-anamnestических факторов ухудшения качества жизни (КЖ) кардиологических пациентов в постковидном периоде исследованы 70 пациентов, обеих полов с верифицированным диагнозом ИБС. Исследуемые разделены на две группы: основная группа - 36 больных с ИБС, перенесших COVID-19, и группа сравнения - 34 пациента без перенесенной в анамнезе коронавирусной болезни. Среди исследуемых пациентов проведено анкетирование с целью оценки КЖ с применением международного вопросника EQ-5D и визуальной аналоговой шкалы EQ-VAS, с последующей оценкой влияния социально-демографических и клинических факторов на КЖ кардиологических больных в постковидном периоде. В ходе исследования было выявлено, что уровень качества жизни пациентов с ИБС имели достоверные различия в сравниваемых группах в зависимости от наличия в анамнезе перенесенного COVID-19. Средние значения компонентов КЖ по вопроснику EQ-5D, такие как самообслуживание (EQ-2) ($p=0,01$), наличие боли/дискомфорта (EQ-4) ($p=0,05$) и тревоги/депрессии (EQ-4) ($p=0,01$), а также состояние здоровья по EQ-VAS у пациентов с ССН основной группы были достоверно хуже на фоне коронавирусной инфекции ($p=0,01$) в отличие от пациентов не болевших COVID-19. Многофакторный регрессионный анализ установил, что факторы, влияющие на КЖ, такие как, женский пол, пожилой возраст, высшее образования, безработица, поступление в реанимацию и сахарный диабет (СД) оказали значительное негативное влияние на значения индекса EQ-5D ($p < 0,05$). Таким образом, уровень КЖ пациентов с ИБС имел достоверно низкие значения индекса EQ-5D и EQ-VAS при наличии в анамнезе перенесенного COVID-19, что усугубляется при наличии факторов, таких как, женский пол, пожилой возраст, высшее образования, безработица среди демографических факторов и госпитализация в реанимацию, прогрессирования ХСН и СД среди клинических факторов.

Ключевые слова: COVID-19, ишемическая болезнь сердца, ХСН, качество жизни.

In order to determine the key clinical and anamnestic factors in the deterioration of the quality of life (QoL) of cardiological patients in the post-COVID period, 70 patients of both sexes with a verified diagnosis of coronary artery disease were studied. The study subjects were divided into two groups: the main group - 36 patients with coronary artery disease who underwent COVID-19, and the comparison group - 34 patients without a history of coronavirus disease. Among the studied patients, a survey was conducted to assess the quality of life using the international questionnaire EQ-5D and the visual analogue scale EQ-VAS, followed by an assessment of the impact of socio-demographic and clinical factors on the quality of life of cardiological patients in the post-COV period. The study revealed that the level of quality of life in patients with coronary artery disease had significant differences in the compared groups, depending on the presence of a history of COVID-19. Mean values of QoL components according to the EQ-5D questionnaire, such as self-care (EQ-2) ($p=0.01$), presence of pain/discomfort (EQ-4) ($p=0.05$) and anxiety/depression (EQ-4) ($p=0.01$), as well as the state of health according to EQ-VAS in patients with CHF of the main group were significantly worse against the background of coronavirus infection ($p=0.01$), in contrast to patients who did not have COVID-19. Multivariate regression analysis found that factors influencing QoL, such as female gender, older age, higher education, unemployment, admission to intensive care, and diabetes mellitus (DM) had a significant negative impact on the values of the EQ-5D index ($p < 0, 05$). Thus, the level of QoL in patients with coronary artery disease had significantly low values of the EQ-5D and EQ-VAS index in the presence of a history of COVID-19, which is aggravated by the presence of factors such as female gender, old age, higher education, unemployment among demographic factors and hospitalization in intensive care, progression of CHF and DM among clinical factors.

Key words: COVID-19, ischemic heart disease, CHF, quality of life.

Dolzarbliliri. Xozirgi kungacha COVID-19 kasalligini klinik va epidemiologik o'ziga xosligi, komorbid kasalliklar, jumladan yurak qon tomir kasalliklari (YuQTK) bilan o'zaro bog'liqligi, koviddan keyingi davr kechishini faol o'rganish, koronavirus infeksiyasi profilaktikasi, davolash va reabilitatsiyasiga qaratilgan samarali yondashuvlarni izlash dolzarb ravishda davom etmoqda [2]. COVID-19 kasalligini bemorlarning funkcion-

al va ruhiy salomatligiga salbiy ta'siri oqibatida asosiy yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rig'an bemorlarning koronavirus infeksiyasi o'tkazgandan keyingi davrda hayot sifati (HS) ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ehtimoldan xoli emas. [1]. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan hayot sifati «Insonning jismoniy salomatligi, uning psixologik holati, mustaqillik darajasi, ijtimoiy munosabatlar va ularning atrof-muhit-

ga bog'liqligi bilan birgalikda ta'sir ko'rsatadigan keng qamrovli tushuncha» deya ta'riflangan [4]. Hayot sifati, ayniqsa yurak-qon tomir kasalliklari bilan og'rikan bemorlar sog'ligining eng muhim jihatlaridan biri deyish mumkin. JSTning ta'rifiga ko'ra, hayot sifati sog'likni saqlashda va har bir kasallikni davolashdagi kerakli omil deya hisobga olinishi kerak. Hayot sifati darajasini o'lchash kasallik bemor faoliyati, funksiyalari va holatiga ta'sirini baholash uchun eng maqbul va ishonchli usul hisoblanadi. Bundan tashqari, kasallik rivojlanishiga ta'sir qiladigan yondosh kasalliklar ham bemorning hayot sifati belgilaydigan yana bir omildir.[5]. COVID-19 — bu jiddiy kasallik bo'lib, kasallikning funksional va ruhiy salomatlikka salbiy ta'siri tufayli asosan yurak-qon tomir kasalliklari, xususan, yurak ishemik kasalliklari bilan og'rikan bemorlarning COVID-19 dan keyingi davrdagi tiklanishi va keyingi hayot sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin [1,2].

Tadqiqot maqsadi. COVIDdan keyingi davrda yurak ishemik kasalliklari bilan kasallangan bemorlar hayot sifati yomonlashuvini oldindan belgilab beruvchi omillarni aniqlash.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqotda YuIK bilan kasallangan, Stabil zo'riqish stenokardiyasi FS 2-3 diagnozli, surunkali yurak yetishmovchiligi bilan asoratlangan har ikki jinsdagi 70 nafar bemor ishtirok etdi. Tadqiqot uchun bemorlar ikki guruhga bo'lindi: asosiy guruh - surunkali yurak yetishmovchiligi bo'lgan 36 nafar COVID-19 (virusli infeksiyaning o'rta darajasi) bilan kasallangan bemorlar va taqqoslash uchun 2-guruh - koronavirus kasalligi bilan kasallanmagan 34 nafar bemor edi. So'rovnomada Toshkent tibbiyot akademiyasi ko'p tarmoqli klinikalarda davolanayotgan o'rtacha

yoshi $58,6 \pm 1,26$ yosh bo'lgan har ikki jinsdagi bemorlar ishtirok etdi. COVIDdan keyingi oxirgi 6 oy davomida surunkali yurak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarning kardiologiya bo'limiga yotqizilish holatlari ko'proq kuzatilgan.

Bemorlarning jismoniy, psixologik, emotsional va ijtimoiy xususiyatlarini baholash uchun EUROQOL - EQ-5D va vizual analogli shkala EQ-VAS xalqaro so'rovnomalar bo'yicha hayot sifati baholashning zamonaviy usullaridan foydalanildi [6]. EQ-5D so'rovnomasi bemorda harakatchanlik, o'z-o'zini parvarish qilish, kundalik hayotdagi faollik, og'riq/bezovtalik va havotir/depressiya mavjudligini aks ettiruvchi besh komponentni baholash uchun mo'ljallangan. EQ-VAS vizual analogli shkalasi esa bemorning subyektiv holati bilan bog'liq hayot sifati individual miqdoriy bahosidir. EQ-5D va EQ-VAS so'rovnomalari bemorlar uchun soddaligi va tadqiqotchi uchun qulayligi sababli hayot sifati to'g'ridan-to'g'ri baholashning eng ko'p qo'llaniladigan zamonaviy turlaridan biridir [3].

Tadqiqot natijalari. Asosiy gurux ($n=36$) va taqqoslama guruxlar ($n=34$) orasida yurak - qon tomir kasalliklari rivojlanishining asosiy xavf omillari, jumladan chekish, gipodinamiya, semizlik, arterial gipertoniya va stress darajasi bo'yicha tafovutlar aniqlandi (1-jadval). Xususan, YuIK/SYuE bilan og'rikan COVID-19 o'tkazgan bemorlarda (asosiy gurux) anamnezida koronavirus infeksiyasi o'tkazgan YuIK/SYuE mavjud bemorlarga (solishtirma gurux) nisbatan ishonarli darajada chekuvchilar 16% ga ($p<0,01$), gipodinamiya 26,7% ga ($p<0,05$), semizlik 12,6% ga ($p<0,05$) va yuqori darajali arterial gipertenziya 10,6% ga ($p<0,05$) ko'proq uchrashi aniqlandi.

1-jadval

COVID-19 o'tkazgan va o'tkazmagan bemorlarda YuQTK xavf omillarining solishtirma taxlili


YuQTK asosiy XO	COVID-19 o'tkazgan YuIKli bemorlar, n=36	COVID-19 o'tkazmagan YuIKli bemorlar, n=34
Chekish, n (%)	32,7%**	16,7%
Gipodinamiya, n (%)	83,3%*	56,6%
TMI, (kg/m ²)	34,4±1,14	30,7±1,21
Semizlik, n (%)	45,3%*	32,7%
1 daraja, n (%)	12,7%	14%
2 daraja, n (%)	18,6%*	10,4%
3 daraja, n (%)	12%	8,8%
Arterial gipertoniya		
1 daraja, n (%)	34%	46%*
2 daraja, n (%)	38,7%	37,3%
3 daraja, n (%)	27,3%*	16,7%
Stress darajasi, (ball)	3,8±0,15**	2,5±0,15

Izox: * $p<0,05$, ** $p<0,01$ -ishonchlilik darajasi.

Ma'lumki, koronavirus infeksiyasi bilan kasallanish oqibatida bemorlarda turli ko'rinishdagi psixoemosional buzilishlar kuzatiladi va ular surunkali stress fonida COVID-19 dan keyingi davrda "postkovid sindrom" ning asosiy simtomakompleksi bo'lib xisoblanadi. Shunga ko'ra, Rider testi bo'yicha stress darajasining o'rtacha

ko'rsatkichlari koronavirus kasalligini bilan kasallanmagan solishtirma gurux bemorlaridan asosiy guruxning COVID-19 o'tkazgan SYuE bilan asoratlangan YuIKli bemorlarida 1,5 barobar yuqori darajadagi stress holatlari mavjudligi aniqlandi ($p<0,01$).

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarga ko'ra, SYuE bilan asoratlangan YuIK bilan kasallangan bemorlarning hayot sifati ko'rsatkichlari anamnezida COVID-19 bilan kasallanishga bog'liq ravishda tadqiqot guruhlarida sezilarli farqlar mavjudligi aniqlandi (rasm-1). Binobarin, asosiy guruhdagi SYuE bo'lgan bemorlarda o'tkazilgan koronavirus infeksiyasi fonida EUROQOL – EQ-5D so'rovnomasi bo'yicha HS komponentlarining o'rtacha qiymatlari, jumladan, o'z-o'zini parvarish qilish (EQ-2) ($r=0,01$), og'riq / diskomfort (EQ-4) ($r=0,05$) va xavotir/depressiya mavjudligi indekslari (EQ-4) ($r=0,01$), shuningdek, EQ-VAS bo'yicha salomatlik holati ($r=0,01$) sezilarli darajada yomonlashdi. Ta'kidlash joizki, asosiy guruhdagi bemorlarda HS ning EQ-VAS shkalasi asosida olingan o'rtacha ko'rsatkichi COVID-19 o'tkazmagan bemorlarning hayot sifatining salomatlik ko'rsatkichiga nisbatandan 18,9% ga past ekanligi aniqlandi, mos ravishda 55,2% va 68,6% ni tashkil etdi ($r<0,01$).



Rasm- 1. COVID-19 dan keyingi davrda YuIK/SYuYe mavjud bemorlarning hayot sifati komponentlarining o'rtacha ko'rsatkichlari.

Ko'pomilli regression tahliliga ko'ra, ayol jinsi, qarilik, oliy ma'lumot, ishsizlik, intensiv terapiyaga gospitalizatsiya va QD kabi HSGa ta'sir qiluvchi omillar EQ-5D-5L barcha parametrlarining indeksi qiymatlariga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi ($p < 0,05$).

Xulosa. Shunday qilib, SYuE bilan asoratlangan YuIK li bemorlarning HS darajasi, jumladan EQ-5D-5L va EQ-VAS indekslarining sezilarli darajada past ko'rsatkichlari anamnezida COVID-19 o'tkazganligi bilan bevosita bog'liqdir. Shunga ko'ra, ko'pomilli regression tahlil shuni ko'rsatdiki, demografik omillar orasida ayol jinsi, qarilik, oliy ma'lumot, ishsizlik; klinik omillar orasida esa intensiv terapiya bo'limiga gospitalizatsiya, SYuYe va qandli diabetning avj olishi COVID-19 dan keyingi davrda YuIK mavjud bemorlarda hayot sifati darajasiga eng katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Tadqiqot davomida COVID-19 dan keyingi davrda YuQTK bilan og'riqan bemorlarning HS yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy-demografik va klinik-anamnestik omillarning mohiyati baholandi. HSning EQ-5D-5L indeksi bilan ijtimoiy-demografik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni bir o'lchovli tahlil natijalariga ko'ra, EQ-5D-5L indeksining o'rtacha qiymatlarini kekin pasayishida bemorlarning jinsi ($r=0,01$), yoshi ($r=0,05$), ta'lim darajasi ($r<0,001$) va ish joyidagi lavozimi ($r= 0,002$) kabilar muhim ahamiyat kasb etdi. Shunindek, bir o'lchovli tahlil shuni ko'rsatdiki, YuIKli bemorlarda klinik omillardan qandli diabet (QD) ($r<0,001$) yoki SYuYe mavjudligi ($r=0,002$) va/ yoki intensiv terapiya bo'limiga gospitalizatsiya qilingan ($r<0,001$) holatlarda EQ-5D-5L indeksining o'rtacha qiymatlari juda past darajadaliq aniqlangan.

Adabiyotlar

1. Abdumalikova F.B., Nurillayeva N.M., Nuritdinova N.B., Shukurjanova S.M. Влияние пандемии Covid-19 на поведенческие и психосоциальные факторы риска кардиоваскулярных заболеваний. Инфекция, Иммунология и Фармакология. №4. 2021. С. 16-19.
2. Abdumalikova F.B., G'iyasova M.G., Usmanov X. Особенности течения сердечно-сосудистых заболеваний при Covid-19. Вестник ташкентской медицинской академии. 2021. С. 82-84.
3. Yagudina R.I., Kulikov A.Yu., Litvinenko M.M. QALY: история, методология и будущее метода. Фармакоэкономика. 2010; 3 (1). С.7-11.
4. Abu HO, Ulbricht C, Ding E, Allison JJ, Salmoirago-Blotcher E, Goldberg RJ, Kiefe CI. Association of religiosity and spirituality with quality of life in patients with cardiovascular disease: a systematic review. Qual Life Res. 2018; 27:2777-2797.
5. Chatzinikolaou A., Tzikas S., Lavdaniti1 M. Assessment of Quality of Life in Patients With Cardiovascular Disease Using the SF-36, MacNew, and EQ-5D-5L Questionnaires Cureus. 2021 Sep; 13(9): e17982. doi: 10.7759/cureus.17982.
6. Reenen VM, Janssen B. EQ-5D-5L User Guide — Basic information on how to use the EQ-5D-5L instrument. Version 2.1. 2015.

<i>Маткаримова Д.С. АССОЦИАЦИЯ ПОЛИМОРФНЫХ ГЕНОВ ПРОВОСПАЛИТЕЛЬНЫХ ЦИТОКИНОВ С ФОРМИРОВАНИЕМ ТЯЖЕЛОГО ТЕЧЕНИЯ ИММУННОГО МИКРОТРОМБОВАСКУЛИТА</i>	175
<i>Миррахимова М.Х., Нишонбоева Н.Ю., Кобилжонова Ш.Р. АТОПИК ДЕРМАТИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БОЛАЛАРДА ПАНКРЕАТИК ЕТИШМОВЧИЛИКНИ КОРРЕКЦИЯЛАШ</i>	179
<i>Муллаева С.И., Пирматова Н.В., Туракулов Р.И. ФОРМИРОВАНИЕ ДИСФУНКЦИИ ПОЧЕК ПРИ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ</i>	183
<i>Nasretdinova D.O., Abdumalikova F.B., Usmonov X.I. KOVIDDAN KEYINGI DAVRDA YURAK ISHEMIK KASALLIGI MAVJUD BEMORLAR HAYOT SIFATIGA KLINIK VA ANAMNESTIK OMILLARNING TA'SIRI</i>	186
<i>Obidov H.M, Xudoyberdiyev S.E. SURXONDARYO VILOYATIDA TEMIR YETISHMOVCHILIGI TUFAYLI KELIB CHIQUADIGAN ANEMIYALARNING SABABI VA PROFILAKTIKASI</i>	189
<i>Онгарбайев Д.О., Парничева Н.Н., Ходжаева М.И., Мухамедов К.С., Массавиров Ш.Ш. ОСОБЕННОСТИ КЛИНИЧЕСКОГО ТЕЧЕНИЯ ТУБЕРКУЛЕЗА У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ COVID-19</i>	192
<i>Паттахова М.Х., Муталов С.Б. ХРОНИЧЕСКИЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ ПЕЧЕНИ И ОСОБЕННОСТИ ГУМОРАЛЬНЫХ ФАКТОРОВ</i>	196
<i>Паттахова М.Х. ЛЕКАРСТВЕННЫЕ ПОРАЖЕНИЯ ПЕЧЕНИ</i>	199
<i>Рахманова У.У. ПРОГНОЗИРОВАНИЕ И ИЗУЧЕНИЕ КЛИНИКО-ИММУНОЛОГИЧЕСКИХ МАРКЕРОВ У ПАЦИЕНТОВ С В- ТАЛАССЕМИЕЙ</i>	201
<i>Рахманова У.У. ОСОБЕННОСТИ РЕАГИРОВАНИЯ КЛЕТОЧНОГО ЗВЕНА ИММУННОЙ СИСТЕМЫ У БОЛЬНЫХ В-ТАЛАССЕМИЕЙ ПОЛУЧАЮЩИХ ХЕЛАТОРНУЮ ТЕРАПИЮ</i>	206
<i>Рахманова Л.К., рахманова А.М. РЕГИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КОМОРБИДНОЙ ТЕЧЕНИИ НЕФРОТИЧЕСКОГО СИНДРОМА С ФОНОВОЙ ПАТОЛОГИЕЙ У ПОДРОСТКОВ</i>	209
<i>Рахметова М.Р. ФАКТОРЫ РИСКА РАЗВИТИЯ ОЖИРЕНИЯ И КОМОРБИДНЫХ БОЛЕЗНЕЙ</i>	213
<i>Сайфутдинова З.А., Каримов Х.Я. СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ НОВОГО АМИНОКИСЛОТНОГО КРОВЕЗАМЕНИТЕЛЯ ПРИ ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОМ ТОКСИЧЕСКОМ ГЕПАТИТЕ</i>	217
<i>Туракулова Х.Э., Азизова Н.Д., Шамсиев Ф.М., Абдуллаева М.К. КЛИНИКО-ЛАБОРАТОРНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА БРОНХИАЛЬНОЙ ОБСТРУКЦИИ У ДЕТЕЙ</i>	221
<i>Tuychibaeva D.M., Dutmukhamedava A.M. RELATIONSHIP BETWEEN OPTICAL COHERENCE TOMOGRAPHY ANGIOGRAPHY VESSEL DENSITY AND SEVERITY OF VISUAL FIELD LOSS IN GLAUCOMA</i>	224
<i>Ташматова Г.А., Халматова Б.Т. БРОНХИАЛЬНАЯ АСТМА И COVID-19: ВОПРОСЫ КОМОРБИДНОСТИ</i>	227
<i>Усманходжаева А.А, Таралева Т.А. ВАРИАБЕЛЬНОСТЬ СЕРДЕЧНОГО РИТМА СПОРТСМЕНОВ, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ВЕЛОСПОРТОМ</i>	230
<i>Хайтбоев Ж.А. COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРИНИНГ БУЙРАКЛАРИ ШИКАСТЛАНИШИ</i>	236
<i>Xalmuxamedov B.T. TIBBIYOT OLIY O'QUV YURTLARI TALABALARINI O'QITISHDA TELETIBBIYOT TEXNOLOGIYALARI ASOSLARI</i>	239
<i>Халмухамедов Б.Т. ОСОБЕННОСТИ УЧЕБНОЙ И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩИХ СЕМЕЙНЫХ ВРАЧЕЙ ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ</i>	242
<i>Xodjanova Sh.I. YURAK ISHEMIK KASALLIGI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA TROMBOTSITLAR AGREGATSIYASI VA ASPIRINNING UNGA TA'SIRINI BAHOLASH</i>	245
<i>Шарапов О.Н. КАРДИОВАСКУЛЯРНЫЕ ЗАБОЛЕВАНИЯ У ГЕМОДИАЛИЗНЫХ БОЛЬНЫХ ГОРОДА ТАШКЕНТА</i>	249
<i>Shoalimova Z.M., Nuritdinova N.B., Abdiakimova B.I. INDICATORS OF VASCULAR INFLAMMATION IN PATIENTS WITH EXERTIONAL ANGINA WHO UNDERWENT COVID-19.</i>	252
<i>Ярмухамедова Д.З., Нуритдинова Н.Б., Абдихамидова Х. ЮРАК-ҚОН ТОМИР КАСАЛЛИКЛАРИ БИЛАН ОҒРИГАН БЕМОРЛАРДА COVID-19 ИНФЕКЦИЯСИ ОҚИБАТИДАГИ ПСИХОЛОГИК ЎЗГАРИШЛАР</i>	257